

O’ZBEK VA INGLIZ TILLARI TOPONIMLARIDA ZIYORATGOH NOMLARNING CHOG’ISHTIRMA TADQIQI

(Termiz va Winchester shaharlaring obyektlari nomlari misolida)

Shoyimova Komila O’rol qizi

Termiz davlat universiteti o’qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada toponimikaning rivojlanish tendensiyasi, toponim va joy ta’rifi, Termiz shahri va Winchester hududida mavjud joy nomlari tasnifi, tarkibi, nomlanish qonuniyatları va tarixiy xususiyatlari, Termiz shahri va Winchester shahri tarixiy toponimlarining obyekti nomlari, mahalla va ko’chalar nomlari, muassasalar va boshqa turli joylar bilan bog’liq toponimlar, Termiz shahri va Winchester shahri qismida o’rin olgan joy nomlari shakllanishining tarixiy xususiyatlari, ko’chalarning nomlari, turli muassasalar bilan bog’liq bo’lgan toponimlar yoritilgan hamda shaharlarning ko’plab obyektlari farqlariga urg’u berilgan.

Kalit so’zlar

Termiz, Winchester toponim, tarix, rivojlanish, joy, shahar, hudud, ko’cha, toponim, nom, darvoza, geografik obyekt.

Jahon tilshunosligida onomastika, xususan, toponimikaning tadqiqot obyekti sifatida toponimlar ham muhim tarixiy, milliy-madaniy, ijtimoiy axborot tashuvchi lingvistik birliklar sifatida o’rganilmoqda. Toponimlarning o’rganilishi til tizimi taraqqiyoti va takomilini, ularga aloqador hudud dialekti, tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, tabiatи va boshqa imkoniyatlarini tadqiq qilish nuqtayi nazardan ham ilmiy-nazariy, ham amaliy ahamiyatga egadir. Onomastika masalalari dunyodagi turli soha olimlari tomonidan ilmiy nazariy va amaliy asoslarda tadqiq etish ancha vaqtlardan buyon davom etib kelmoqda. Bugungi kunga kelib toponimik birliklarning barcha tiplarini yaxlit bir tizim sifatida tarixiy-etimologik, leksik-semantik, struktur-tipologik, nominatsion-motivatsion, sotsiolingvistik, antroposentrik jihatdan o’rganish muhim hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida toponimlarning oykonim, gidronim, oronim, nekronim, agroonim kabi tarkibiy qismlarini lingvistik paradigmalar asosida o’rganish xalqning ijtimoiy hayotini, milliy, etnik, madaniy tarixini, shu xalq tilining tarixiy taraqqiyotini yoritishda ahamiyatlidir. Toponimlar muayyan tilda xalq tomonidan yaratiladi va o’sha davrning ijtimoiy hayoti haqida axborot beradi. Toponimlar xalqning o’tmishi, urf-odatlari, boshidan kechirgan turli xil ijtimoiy-siyosiy, etnomadaniy jarayonlarni o’zida saqlovchi lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Ana shu ma’noda toponimlar tilning tarixiy, lisoniy boyligi, xalq ma’naviyatining ajralmas merosidir. Zero, “Tarixiy merosni asrab-avaylash, o’rganish va avlodlarga qoldirish, davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo’nalishlaridan biridir”. Keyingi yillarda respublikamiz toponimlarini lug’atini yaratish bo‘yicha ham samarali ishlar amalga oshirildi. Shu kunga qadar yaratilgan toponimik lug’atarning aksariyati ma’lum hududga tegishli joy nomlarini etimologik izohini ko’rsatishga qaratilgan.

Toponimlar tarixini yoritish orqali biror hududning o‘tmishdagi tabiiy sharoiti, siyosiy holati, etnik jarayonlari, iqtisodiy mavqeい, xalqaro aloqalari, aholining ijtimoiy va madaniy hayoti kabilar haqida ma’lumot olish mumkin. Zero, “toponimlar – bu yerning tili”, ularda ma’lum hududning tarixi aks etadi. Bu o‘z navbatida tarixni mukammallashtirish imkonini berish bilan birga, unga aniqliklar kiritadi, har bir viloyat, shahar, qishloqlar tarixining o‘z o‘rni bor va uni manbalarga tayanib o‘rganish zarurati tug‘ildi.

Biz onomastika, xususan tarixiy onomastika haqida ularning ilmiy tadqiqot ishlariga tayanib ish tutamiz. Shu bilan birga, ta’kidlash lozimki, har qanday holda ham qanday tasnifning foydali va o‘rinli ekanini til materialining o‘zi belgilaydi. Shu sababli har qanday atoqli ot guruhlarining barchasi uchun bir xil, doimiy tasniflar bo’lishi qiyin. Atoqli otlar tasnifida quyidagi usullar tilshunos olimlar jamoasi tomonidan ma’qullangan:

1. Atoqli otlarni nom qanday obyekt (subyekt ham)ni ifodalashiga ko‘ra tasniflash. Bugungi kunda onomastik tadqiqotlarda ko‘p qo’llanilayotgan antroponiya, toponimiya, astronimlar, zoonimlar, taonimiya, xremotonimlar, ideonimlar, dokumentonimlar, ergonimlar, faleronimlar singari terminlar va ular zaminida yotuvchi atoqli otlar mazkur tasnifning mahsuli hisoblanadi.
2. Nom ifodalayotgan obyektning hajmi xususiyatiga ko‘ra atoqli otlar tasnifi: makrotoponimlar, mikrotoponimlar ushbu tasnifga kirgan.
3. Atoqli otga asos bo’lgan apellyativ so’zning tarixiy manbai, ya’ni qaysi tilga mansubligiga ko‘ra nomlar tasnifi.

Onomastika, jumladan o‘zbek onomastikasi tarix, etnografiya, genealogiya, geraldika, matnshunoslik, adabiyotshunoslik, geografiya, astronomiya, geologiya, demografiya kabi bir qator fanlar bilan uzviy aloqador fan sanaladi.

Hudud topominlarining yasalishida toponimik aniqlagichlar ham ishtirot etgan. Toponimik aniqlagichlarning eng xarakterilari: oykonimik aniqlagichlar (qishloq, ovul, qo‘rg‘on, rabot); gidronimik aniqlagichlar (ariq, soy, buloq, quduq); oronimik aniqlagichlar (tog‘, tepa, qir) hisoblanadi.

Hududdagi topominlarni etimologik tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek toponimiyasidagi ko‘pchilik joy nomlari aholining etnik qatlamiqa, kasbiga, tabiatiga, hayvonot va o‘simgilik dunyosiga, joyning relyefiga va shu kabi hodisalar bilan bog‘liq holda vujudga kelgan.

Termiz hamda Winchester shaharlari misolida ham toponomik obkyekt nomlari misolida ham o‘xshash va farqli jihatlarini ko‘rishimiz mumkin.

Termiz shahrining o‘zida ham ziyyaratgoh joylar mavjud bo’lib, asosan

Qirqqiz qal’asi – eramizning 9-10 asrlariga oid Surxondaryo viloyatidagi me’moriy yodgorlik bo’lib, Termiz tumanida vayrona holida saqlanib qolgan. Inshoot qanday maqsadda qurilganligi (qal’a, saroy, xonaqoh, karvonsaroy) haqida rasmiy dalil, ma’lumot yo‘q. U dunyo tomonlariga moslab qat’iy mujassamatda, ya’ni G‘arb va Sharq burchaklarini aniq hisobga olib bunyod etilgan. Qal’a to‘rtburchak tarhli (53,3x54,8 m), 1 qavatli, faqat yo‘laklar umumiyligi balandlikda 2 qavatlari bo’lib, xom g‘isht (30x30x5 – 5,5 sm)lardan qurilgan, toq va ravoqlarida shu o‘lchamdagisi pishiq g‘ishtlar ham ishlatalgan; qalin devor bilan o‘ralgan (tashqi devor qalinligi 2–2,5 m).

Sulton Saodat- Sulton Saodat majmuasi 5 asr davomida (XII-XVII asrlar) Termiz sayidlari dafn etilgan joyda qurilgan. Ushbu majmuani diniy binolardan tashkil topgan. Majmuuning negizida 2 ta maqbara joylashgan bo’lib, ular jome masjid vazifasini bajaruvchi ayvonlar bilan birlashtirilgan. Maqbaralar gumbazlar bilan yopilgan arkali kompozitsiyalar bo’lib, ularning ichkarisida pishgan g’ishtlardan qurilgan sag’onalar joylashgan. Ularda dekorativ naqshlarning qoldiqlari qisman saqlanib qolgan.

Kokildor Ota- xonaqohi o’zining arxitekturasi va ajoyib qurilishi bilan farq qiladi. Ushbu gumbazli va ko’p xonali yodgorlikning old qismi g’ishtdan ishlangan. Uning qurilishida Sulton Saodat kompleksiga o’xshab uch pog’onalik old qismi g’oyasi qo’llanilgan. Bino rejsi simmetrik ravishda bo’lgan. Markaziy o’qida asosiy kirish va gumbazli katta zaldan iborat ayvon joylashgan. Uning atroflarida, deyarli parallel ravishda oynali ko’rinishda xonalar joylashgan. To’g’ri to’rtburchak shakldagi kirish markaziy zalga, yon kirish qismlari unga tutash xona va koridorlarga olib borgan. Bino devorlari ganj bilan ishlov berilgan. Binoning ichki xonalarida qabr toshlari bo’lib, ularning orasida eng kattasi Kokildor otaga tegishli.

Murchbobo jome masjidi – Surxondaryo viloyati Termiz shahrida joylashgan jome masjid. Masjid 1930-yillarda Imom Aliboy boshchiligidagi xalq bilan birga qurilgan. Bu masjid nomi yangi qurilayotgan masjid atrofida o’sgan murch giyohi bilan bog’liq bo’lib, masjidga murch nomini berilishiga sabab bo’lgan shaxs Sayyid Abduvali Samarcandiy Al Mulakkib murch boboi hisoblanadi. Bu shaxs asli Samarcandlik, haj amalini bajargani Termiz orqali o’tadi. Haj amalini ado etib Balx shahri orqali ortiga qaytayotganida o’zi bilan murch oladi. Termiz shahri bu paytda to’qayzor bio’lgan Samarcandiy Termiz shahriga yetganida qaroqchilarga duch keladi qaroqchilar bu insonni shahid qilishadi. Keyinchalik qabr ustiga maqbara qurdiriladi va qabr ustidan Samarcandiy o’zi bilan olgan murch unib chiqadi.

Surxondaryoning Termiz shahrida shunday nonli qadimiy obidalar bo’lib, ular Termiz shahrining boy tarixiy meroslaridan biri xisoblanadi.

Biz olib borayotgan tahlil natijasida Angliya davlatining Hampshire viloyati Winchester shahrida ham diqqatga sazovor joylar mavjud bo’lib, ularni ham o’z obyekt nomlari bilan atalish qismi mavjud.

Vinchester sobori- Winchester sobori tarixiy Vinchestering markazida joylashgan Evropadagi eng yaxshi o’rta asr soborlaridan biridir. Bu 900 yildan ortiq vaqtidan beri sajda qilish va kutib olish joyi bo’lib kelgan va Britaniyadagi eng tarixiy ahamiyatga ega binolardan biri hisoblanadi. XII asr Winchester Injilini o’z ichiga olgan beba ho xazinalar bilan boyitilanligini ko’rish mumkin. Winchester sobori Sakson qirolligi va mashhur ingliz yozuvchisi Jeyn Ostennenning dam olish joyidir. Bu ko’rgazma “Qirollar va ulamolar: Millatning tug’ilishi” bu ko’rgazma tashrif buyuruvchilarni anglo-sakson davridan to hozirgi kungacha bo’lgan 1000 yillik tarixga ega joydir.

Katta zalda qiroli Arturning davra stoli - Winchester qal’asi 1067 yilda Uilyam bosqinchisi tomonidan Angliyada qurilgan birinchi Norman qal’alaridan biri bo’lib, 100 yildan ortiq vaqt davomida Norman qirollari uchun hukumat qarorgohi bo’lib xizmat qilgan.

Bugungi kunda qal’aning yagona qismi - Buyuk Zal. Genrix III tomonidan qo’shilgan Katta Zal 1222-1235 yillar oraliq’ida qurilgan bo’lib, uning asosiy diqqatga sazovor joylari ham shu davrga to’g’ri keladi... afsuski, bu Artur tarixining haqiqiy davra suhbati emas, lekin u hali

ham juda ta’sirli (va Shunga qaramay, tarixiy) nusxasi va tashrif buyurish uchun kichik kirish to’loviga arziydi.

Diametri 18 fut va og’irligi 1200 kg dan ortiq bo’lgan bu stol 13-asrga borib taqaladi, ammo qiroq Genrix VIII hukmronligi davrida u qiroq Arturing hozirgi o’ziga xos rasmii bilan hayratga tushmadi (bu g’ayrioddiy o’xshashlikka ega). Genrix VIIIning o’ziga, albatta, shunday qiladi), qiroq Artur ritsarlarining nomlari bilan o’ralgan.

Mahalliy aholi asrlar davomida ushbu jadval haqiqatan ham haqiqiy kelishuv ekanligiga ishonishgan, ammo afsuski, radiokarbon bilan tanishish 1970-yillarda bu da’voni rad etdi. Endi stol o’rta asrlarda davra stoli musobaqasi uchun qurilgan deb ishoniladi va hamma hayratga tushishi uchun katta zalda g’urur bilan osilgan.

Vinchester gildiyasi- Winchester gildiyasi 1871 yilda Gothic Revival uslubida qurilgan yana bir ajoyib bino. Biroq, saytning tarixi bugungi kunda joylashgan bino kabi qiziqarli. Buyuk Qirol Alfredning bevasi Aelsvit bu yerda rohibaxonaga asos solgan va eramizning 899 yilda vafotidan keyin u yerda nafaqaga chiqqan. Bu monastir Sent-Meri Abbeyga aylandi va Genrix VIII tomonidan monastirlar tarqatib yuborilishidan oldin mamlakatdagi eng yirik monaxlardan biri edi.

Avliyo Meri abbatligi buzib tashlandi, ammo er ispaniyalik Filipp II bilan turmush qurishda yordam bergani uchun Meri Tudor tomonidan shaharga sovg'a qilinmaguncha toj nazorati ostida qoldi. Bugungi Gildiya zali 1870-yillarda qurilgan bo’lsa-da, keyinchalik u bir necha bor kengaytirilgan va ta’mirlangan.

Umuman olganda bunday diqqatga sazovor joy nomlari toponimlarning tarixiy obyekti sifatida qadrlanmoqda. Xulosa o’rnida maqolada ham ana shunday qadryatlarni qadrlagan xolatda, boy merosimizni yoritib boraveradi.

ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. Nizomov. A, Raximova. G, Rasulova. N. Toponimika T., “Sharq”. 2012
2. P.G’ulomov «Jo‘g‘rofiy atamalari va tushunchalari izohli lug‘ati». T., O‘qituvchi. 1994y Qo‘sishimcha adabiyotlar:
 1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичта кўтарамиз. I жилд. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017, 26-б.
 2. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston”, 2017.
- 3.O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston”, 2017.
5. G’ulomov P., Mirakmalov M.T. Toponimika va geografik terminshunoslik. 2000y
6. Qorayev S. Toponimika. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti. T. 2006.